FARG'ONA VILOYATI SO'X TUMANI HOKIMINING
QARORI

2023 - yil 9 - yanvar 3-11-159-Q/23 So‘x tumani hokimligi

So‘x tumani xalq ta’lim bo‘limi tasarrufidagi yangi tashkil etilgan 30-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabiga mikrohudud biriktirish to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagi 140-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risida”gi Nizomiga asosan, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6, 25-moddalarini qo‘llab, maktab yoshidagi bolalarni majburiy ta’limga jalb etish uchun yangi tashkil etilgan 30-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabiga mikrohudud biriktirish maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1.So‘x tumani xalq ta’limi bo‘limining 2022 yil 15 avgust kungi “Maktab yoshidagi bolalarni majburiy ta’limga jalb etish uchun tumanda yangi tashkil etilgan 30-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabiga mikrohudud biriktirish to‘g‘risida”gi №-02-1/340-sonli murojaati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Maktab yoshidagi bolalarni majburiy ta’limga jalb etish uchun tumandagi yangi tashkil etilgan 30-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining mikrohududi Oftobru MFY Toshqura qo‘chasi 1-374 xonadonlar etib belgilansin.

Bunda biriktirilgan mikrohudud doirasida doimiy yashaydigan va vaqtincha ro’yxatda turgan oila farzandari inobatga olinadi.

3. Yangi tashkil etilgan 30-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi rahbariga maktabga biriktirilgan mikrohudud bo‘yicha maktab yoshidagi bolalarni o‘z vaqtida ta’lim muassasasiga jalb qilish uchun mas’ulligi ko‘rsatib o‘tilsin.

4. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari I.Abdumajidov hamda tuman xalq ta’limi bo‘limi mudiri zimmasiga

yuklatilsin.

Hokim vazifasini bajaruvchi **И.Тожибоев**